

ISLOMNING MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI: TARIX VA HOZIRGI ZAMON

Madorova Mohinurxon

Farg'ona davlat universiteti

Fizika -matematika fakulteti Matematika yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19479158>

Markaziy Osiyo -qadimdan sivilizatsiyalar tutashgan, ilm-fan va madaniyat rivojlangan zamin hisoblanadi. Bu mintaqada Islom dinining yoyilishi nafaqat diniy e'tiqodning o'zgarishiga, balki butun boshli mintaqada hayotining ijtimoiy -siyosiy , ma'rifiy va ma'naviy qiyofasini tubdan yangilanishiga xizmat qildi.

Avvalambor bu din mazmuniga to'xtalib o'tilsa. Islom (arabcha *الإسلام* -"bo'ysunish", "itoat etish") Allohga til bilan iymon keltirib , dil bilan tasdiqlash, uning ko'rsatmalariga bo'ysunishni anglatadi. Jahon aholisining 25%i ya'ni 2 milliardga yaqin inson e'tiqod qilayotgan bu din VII asrda Arabiston yarimorolida yuzaga kelgan. Bu dinning muqaddas kitobi Qur'oni karim hisoblanadi. Dinni yetkazuvchi payg'ambar esa Muhammad ibn Abdulloh (s.a.v) dir. Ushbu dinning quyidagicha ma'nolari ham mavjud:

1. Ixlos
2. Turli ofatlardan salomat bo'lish
3. Sulh va omonlik
4. Itoat va bo'ysunish

Allohga itoat qilgan va Alloh yuborgan payg'ambarlarga ergashgan inson musulmon deyiladi.

Islom qisqa muddat ichida dunyoga yoyilgan.Dunyo mamlakatlariga yoyilish jarayonida Markaziy Osiyo hududlarini ham chetlamay o'tmadi. Markaziy Osiyoga ilk yurish VII asr o'rtalarida Sosoniylar qo'shinini mag'lub etish bilan boshlangan. Ilk qisqa muddatli hujumlari 654-yil Maymurg' va 667-yil Chag'oniyon hududiga bo'ldi. Ushbu yurishdan asosiy maqsad hudud bosqini bilan bog'liq emas, balki o'lja yig'ish bilan bog'liq edi. Dastlabki bosqinlar haqida fikr yuritilsa, u Buxoro bilan ham bog'lansa bo'laveradi. Muhammad ibn Ja'farning bayon qilishi bo'yicha Ubaydulloh ibn Ziyod Muoviya I farmoniga binoan Amudaryoni kechib o'tadi va Buxoro hududiga bostirib keladi. Ushbu jang boji sifatida Ubaydulloh ibn Ziyod Buxorodan *yuz ming dirham va to'rt ming buxorolik askarlar* bilan o'z yurtiga qaytadi. Asosiy bosqinlar esa VIII asrdan boshlanadi. Endi bu bosqinlardan maqsad dinni yoyish edi. Bu janglarga Qutayba ibn Muslim boshchilik qiladi. Bu davrda ilk zabt etilgan hudud sifatida Balx tarixda qoldi. Undan so'ng birin - ketin Chag'oniyon va Poykand egallandi. 710-yilda Naxshab va Keshni zabt etilishi Samarqand tomon hujum eshiklarini ochilishiga sabab bo'ladi. Ammo, oradagi urushlar tufayli Samarqandaga yurish kechiktirilib, 712-yilda egallanadi. Bir necha janglardan so'ng Choch (Madinat ash-Shosh) va Farg'onani ham egallashga muvaffaq bo'lishadi.

Bu janglar natijasida islom dini tarqalgan hududlar kengayishi kutilgan edi.Kutilgan natija qisqa muddatda bo'lmasa ham o'z samarasini berdi. Bosib olingan hududlarda islom dini uchun targ'ibotlar olib borildi. Islom dinini ilm -fanga hissasini ko'rib chiqilsa.Islom dinida ilm olish uchun juda ko'p sharoitlar yaratilgan. Jumladan ,islom dinining muqaddas kitobi bo'lmish Qur'oni karimning ilk oyatlaridanoq ilm olishga chorlangan .

Yaratgan Robbing nomi bilan o'qi.

(Alaq surasi 1-oyat)

Yana bir oyatni misol tariqasida ko'rsilsa.

«Аллоҳ сизлардан имон келтирган ва илм ато этилган зотларни (баланд) даража (мартаба)ларга кўтарур»

(Мужодала, 11)

Bu kabi bir qancha oyatlarda ham ilm olish xususida keltirib o'tilgan. Shu jumladan hadisi sharifdan ham bir qancha misollar keltirilsa.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam:

«Jannat bog'lari yonidan o'tsangiz, sayil qiling», dedilar.

«Ey Allohning Rasuli, jannat bog'lari nimadir?» devishdi.

«Ilm majlisleri», dedilar».

Nabiy sollallohu alayhi vasallam:

<< Kim ilm talabida yo'lga tushsa, Alloh unga Jannat yo'lini oson qilib qo'yadi >>,- dedilar.

Ushbu hadis va oyatlardan ko'rinib turibdiki, islom dini har bir musulmonni ilm olishga chorlaydi. Bu esa Markaziy Osiyoda islom kirib kelgandan so'ng ilm fanni rivojlanishiga katta turtki bo'lgan. Juda ko'p ilm fanga hissa qo'shgan olimlar shu davrda yetishib chiqqan. Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Muso al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy va shu kabi olimlar shular jumlasidan. Ushbu shaxslar haqida qisqacha to'talib o'tilsa.

Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Sino – Buxoro yaqinidagi qadimiy Afshona qishlog'ida 980- yilda tug'ilgan, 1037-yilda esa Hamadonda olamdan o'tgan. Qisqartirilgan nomi Ibn Sino, lotinchadagisi – **Avitsenna** serqirra tabbiyot xodimi, fizik, faylasuf, matematik, astronom, kimyogar va musiqashunos. Bugungi kunda ham dolbzarligini yo'qotmagan “Tib qonunlari” mshhur tibbiyot asarining muallifi. G'arb dunyosida uni Islomiy Sharqining buyuk allomasi deb hisoblashgan.

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O'zlug' Tarxon Forobiy -873-yilda Forobda tug'ilgan. Dunyo ahli Arastuni birinchi muallim deb bilishsa, Forobiyni «**Muallimus-soniy**», ya'ni «**Ikkinchi muallim**» deb atashgan. Boshlang'ich ma'lumotni ona yurtida olgan, keyin Toshkent, Buxoro, Samarqandda o'qigan, Bag'dod, Isfahon, Hamadon, Ray shaharlarida bo'lgan. Forobiy 70 dan ortiq tilni bilgan, falsafa, arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa, tabiat, fizika, kimyo, optika, tibbiyot, biologiya va boshqa fanlar sohasidagi kashfiyotlari bilan katta shuhrat qozonib, 160 dan ortiq asar yozgan. Bizgacha 40 ga yaqin asari yetib kelgan. Forobiy 950-yilda Damashqda vafot etgan.

Abu Abdulla Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850-yillar oralig'ida yashab o'tgan)- Abbosiylar xalifaligi davrida Bog'dodda mashhur Dorul-Xikmaning dong'i ketgan vakillaridan bo'lgan. Uning ilmiy merosi sharofati tufayli u qariyb bir asrning 787-yildan to 850- yillargacha mashhur matematigi hisoblangan. Al-Xorazmiyning 20 dan ortiq ilmiy ishlari bizga ma'lum. Uning eng mashhur asari “Aljabr va Almuqobala”da u kvadrat va bir chizikli tenglamaning olti turini, hamda “**algoritmi**” tushunchasini keng tavsiflab bergan. Bundan kelib chiqib o'nlik sistemani topish keltirilgan. Natijada “algoritmi” atamasi al-Xorazmiy nomidan kelib chiqqan.

Ibn Sino va Al-Xorazmiy bilan bir qatorda turuvchi musulmon Sharqi “Uyg'onish davri”ning eng mashhur namoyandasi. U geografiya, matematika, astronomiya, mineralogiya, geodeziya, falsafa kabi bir qator fanlarga oid ko'plab fundamental asar va qo'llanmalar yaratgan.

O‘z davrida birinchi bo‘lib Yerning shar shakllidaligini va u quyosh atrofida aylanishi g‘oyasini ilgari surgan, keyinroq Yer radiusini o‘lchagan. Dunyoga mashhur Markaziy Osiyolik to‘rt qomusiy olimdan biri – **Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy** 973-yil Kat shahrida dunyoga keldi. Uning hammaga ma‘lum “Al-Beruniy” (arabchada mazkur so‘z “tashqari”, “boshqa tomon” kabi ma‘nolarni anglatadi) taxallusi uning shahar tashqarisida tug‘ilgani bilan bog‘liq. Al-Beruniy jami bo‘lib 130dan ortiq qo‘lyozmalarni yozib qoldirgan. Ularning beshdan bir qismigina bizgacha yetib kelgan. Al-Beruniy 995-yildayoq, ya‘ni 22 yoshga to‘lganda, birinchilardan bo‘lib globusni yaratdi va yerning sharsimonligini isbotlab, yerning aylanishini ko‘rsatib bergan. Beruniy yer sharining radiusini aniqlashning 1023 xil yo‘lini kashf qildi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Markaziy Osiyoda islom kirib kelgan davrdan so‘ng juda ko‘p ko‘zga ko‘ringan olimlar kelib chiqqan. Bu davrgacha ham bir qancha olimlar chiqqan albatta, lekin islomdan so‘ng katta portlash kabi ilm fan rivojlanib ketdi. Islom dini har bir musulmonni ilm olish, ilm talab qilishga chorlaydi.